Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316662

https://www.researchgate.net/publication/287966741_Setting_up_a_business_and_funding_sources/link/5a039b94aca272b06ca41f54
/download

3. Olusanmi Olamide. Funding your business. // Covenant University, Raising a new Generation of Leaders, 2021.
https://www.researchgate.net/publication/351869954_Funding_your_Business/link/60ae1145a6fdcc647edc34c8/download

4. Caglayan M. & Demir F. Firm productivity, exchange rate movements, sources of finance, and export orientation. World
Development, 54, 2014. 204-219. https://ideas.repec.org/a/eee/wdevel/v54y2014icp204-219.html

5. Sejin Hahn, Sarafat Hossain. Impacts of COVID-19: Funding Business Operations and Adapting Marketing Strategies. //
Umeå School of Business and Economics Master's Thesis in Business Administration I, 15 Credits, Spring 2021.

6. Elmirzayev S. & Mamatov B. (2022). Акцияларни оммавий жойлаштириш амалиётларини самарали ташкил этиш
масалалари. // Moliya va bank ishi, 8(4), 105-110. Retrieved from https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/102

DAVLAT IJTIMOIY-IQTISODIY FUNKSIYALARINI BAJARISHDA DAVLAT BUDJETINING AHAMIYATI

Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich
TDIU, Mutaxassislik kafedrasi dotsenti
Xolmirzayev Doniyorjon
TDIU Andijon Fakulteti SST ta'lim yonalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlatning o'z funksiya va vazifalarini bajarishda davlat byudjetining ahamiyati, shuningdek davlat budjetining o'ziga xos xususiyatlari hamda jamiyat ijtimoiy hayotidagi roli haqidagi ma'lumotlar hamda davlatlatning tabiati va faoliyatiga qarab davlat byudjeti mohiyati, uning daromadlari va xarajatlari xususiyati va tarkiblari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Davlat budjeti, daromadlar, xarajatlar,iqtisodiy tuzum, iqtisodiy beqarorlik*

Davlat byudjeti — davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo'g'ini hisoblanadi.

Davlat byudjeti tarkiban umumdavlat (yoki markaziy) byudjeti (mamlakat miqyosidagi umumiy daromadlar va xarajatlar yig'indisi) va mahalliy (munitsipal) byudjet (hududiy tuzilmalar — o'lka, viloyat, tuman va h.k. doirasidagi pul

Published: 17.05.2024
Cite this article: Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich, Xolmirzayev Doniyorjon (2024). Davlat ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishda davlat budjetining ahamiyati. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316662
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

daromadlari va xarajatlari)ga bo‘linadi. Ikki turdagi byudjetlar nisbati mamlakatning ichki sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Davlat jamiyatga ijtimoiy xizmatlar (milliy xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, atrof-muhitni himoya qilish, nochorlarga yordam berish, aholiga bepul ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va b.) ko‘rsatadi va bularning barchasi xarajat talab qiladi. Byudjet daromadlari soliqlar, soliqdan tashqari yig‘imlar, davlat zayomlaridan tushgan pul, davlat mulkini sotishdan yoki ijaraga berishdan kelgan mablag‘lardan shakllanadi.

Byudjet daromadining aholi jon boshiga hisoblangan miqdori mamlakatning byudjet salohiyati (potensiali) deb yuritiladi va bu byudjet daromadining umumiy hajmiga hamda aholining soniga bog‘liq. Byudjet xarajatlari uning daromadidan ortib ketsa, byudjet taqchilligi, ya’ni kamomadi yuzaga keladi. Kamomad miqdori mamlakat yalpi milliy mahsulotning 3—3,5 % ga teng bo‘lishi me’yoriy hisoblanadi.

Byudjet kamomadining g‘oyat oshib ketishi va uni daromad bilan ta’minlash mumkin bo‘lmaganda byudjet xarajatlari qisqartiriladi. Markaziy, mahalliy davlat byudjetilari va davlat byudjetidan tashqari fondlar (davlatning muayyan maqsadli fondlari, maxsus maqsadli soliqlar, zayomlar, byudjetdan subsidiyalar hisobiga yaratiladigan maxsus fondlar) yig‘indisi davlatning yigma byudjetini tashkil etadi.

Davlat byudjeti, odatda, joriy yilda kelgusi yil uchun tuziladi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida u chorak yoki yarim yilga tuzilishi ham mumkin. Davlat byudjetini hukumat tuzadi va yuqori qonun chiqaruvchi organ (parlament) tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat byudjeti muayyan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va faoliyatiga qarab davlat byudjeti mohiyati, uning daromadlari va xarajatlari xususiyati hamda tarkibi turlicha bo‘ladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyot, ishlab chiqaruvchi, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashga faol aralashuvi davlat byudjeti mavqeining oshishiga sabab bo‘ladi, milliy daromad davlat ixtiyorida yig‘iladi va uning byudjet orqali qayta taqsimlanadigan qismi ko‘payadi.

Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjetining asosiy qismi soliqlar (fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan undiriladigan shaxsiy daromad solig‘i, ish haqi fondiga soliq va korxonalar, korporatsiyalar foydasidan undiriladigan foyda solig‘i va b.) hisobiga shakllanadi (mas, AQShda soliq tushumlari davlat byudjetining 98 % ini, Buyuk Britaniyada 96,7 % ini, Fransiyada 91,5 % ini tashkil qildi). AQSH federal byudjetidan qilinadigan xarajatlar orasida „daromadlar darajasini ta’minlash“ (qariyalar, mehnatga layoqatsizlar, ishsizlar, nogironlar, tibbiy yordamga muhtojlar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar va h.k.ga yordam ko‘rsatish) sarflari 40 %, milliy mudofaa xarajatlari (28—30 %) eng muhim o‘rinda turadi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti respublika davlat byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlarini birlashtiradi.

O‘zbekistonda yangi boshlanayotgan yil uchun davlat byudjeti yil yakuni (dek. oyining oxiri)da O‘zR Oliy Majlisi sessiyasida tasdiqlanadi va qabul qilingan davlat byudjeti qonun kuchiga ega bo‘ladi hamda amaliyotga joriy etiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng davlat byudjetining shakllanish xususiyatlari

boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi o‘zgarishlar bilan bogliq holda bordi.

O‘zbekistan Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining mutlaq ko‘pchilik qismi soliqlar hisobiga olinmoqda.

Amalda bo‘lgan qonunchilikka muvofiq tashkil etiladigan byudjetdan tashqari jamg‘armalar (ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi, ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish jamg‘armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi jamg‘armasi, yo‘l jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi jamg‘armasi, mineral xom ashyo bazasini ishlab chiqarish fondi, o‘zini o‘zi boshqarish mahalliy organlarining maxsus fondlarining maqsadli yo‘nalishlarini saqlab qolgan holda, 1995-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining birlashgan byudjetiga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetida jami daromadlar va xarajatlar o‘zgarishlarida ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo‘jaliklar va aholi daromadlarining o‘sishi asosiy ahamiyatga ega. Amaldagi O‘zbekiston Respublikasining ―Byudjet tizimi to‘g‘risida‖gi (14.12.2000) hamda Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risidagi (26.08.2004) Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Byudjet Kodeksida o‘z aksini topdi.

MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA BANK, SOLIQ, SUG’URTA TASHKILOTLARINING O‘RNI VA ROLI

Xasanova Guljamol Botirali qizi
Andijon Davlat Universiteti 1-kurs magistranti

Mamalakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tijorat banklarining yangi elektron xizmatlariga yanada talab ortmoqda. Aholi o’rtasida bank ofislariga bormasdan, oddiygina telefon, komputer va boshqa texnologiyalar orqali ko’plab amaliyotlar bajarishlari ommalashgan. Istalgan bankning mobil ilovasi orqali yoki rasmiy saytiga kirib kerakli ma’lumotga ega bo’lish, to’lovlar amalga oshirish, kreditlar rasmiylashtirish, omonotlar ochish va shikoyat yoki arizalarini yo’lllash mumkin.

Bugungi kunda barcha ma’lumotlar raqamalashtirilganligi tufayli, oldin ma’lum muddat kutib turiladigan operatsiyalar bir zumda amalga oshirilmoqda.

Bu axborot-komunikatsiyalarning shiddat bilan hayotimizga kirib kelishi bilan barcha sohalarda shu jumladan moliyaviy xizmatlar bozorida ham keskin raqobatni kuchaytirmoqda.

2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida ham bank tizimini yanada rijovlantirish hamda axborot komunikatsiyalarini bank sohasida yanada qo‘llashni kuchaytish hamda zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy vazifalar belgilab olingan ular quyidagilardir:[9]

[9]2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to’g’risida “ gi strategiyasi 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son